

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Mamajonova Oyjamol

*2-kurs magistranti, "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi,
Andijon davlat pedagogika instituti, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri.*

E-mail: mamajonovaoyjamol@gmail.com

Tel.: +998 97 339 90 20

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish mazmuni, maqsadlari va metodologik asoslari tahlil qilingan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslarining ahamiyati, ularning savodxonlikni shakllantirishdagi, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutq madaniyati hamda axloqiy-ma'naviy tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan yondashuv, axborot-kommunikatsiya vositalari va ijodiy topshiriqlar asosida mashg'ulotlarni samarali tashkil etish usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish darslari, savodxonlik, milliy qadriyatlar, nutqiy kompetensiya, zamonaviy metodika, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, tarbiya jarayoni, o'quvchi faolligi, AKT vositalari.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, цели и методологические основы организации уроков чтения в начальных классах. Освещается значение уроков чтения в процессе начального образования, их роль в формировании грамотности, а также в развитии у учащихся самостоятельного мышления, культуры речи и нравственно-духовного воспитания. Рассмотрены эффективные способы организации занятий на основе современных педагогических технологий, интегрированного подхода, информационно-коммуникационных средств и творческих заданий.

Ключевые слова: начальное образование, уроки чтения, грамотность, национальные ценности, речевая компетенция, современная методика, педагогические технологии, самостоятельное мышление, воспитательный процесс, активность учащихся, средства ИКТ.

Abstract: This article analyzes the content, objectives, and methodological foundations of organizing reading lessons in primary school. It highlights the importance of reading lessons in the process of primary education, their role in developing literacy, as well as fostering students' independent thinking, speech culture, and moral-spiritual education. Effective methods of organizing lessons based on modern pedagogical technologies, an integrated approach, information and communication technologies, and creative tasks are examined.

Keywords: *primary education, reading lessons, literacy, national values, speech competence, modern methodology, pedagogical technologies, independent thinking, educational process, student activity, ICT tools.*

Kirish

Boshlang'ich ta'lim O'zbekiston kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'tarishga qodir ijodkor shaxsni shakllantirishda fundamental vazifani bajaradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadi — o'quvchilarning bilim darajasi va dunyoqarashini yuqori saviyada shakllantirishdan iborat. Shuningdek, olinayotgan axborotni tahlil qilish va undan keng ko'lamda samarali foydalanish muhim vazifalardan biridir. Bolaning ongi va tafakkuri endigina shakllanayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona joriy eta olishi, ilg'or pedagogik tajribadan oqilona foydalanishi hamda innovatsion o'qitish metodlarini qo'llashi alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Asosiy qism. 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi I–IV sinflarda ta'lim berishga bag'ishlangan [2]. Mustaqillik davrida ta'lim sohasidagi qonunchilikka murojaat qiladigan bo'lsak, 1997-yil 6-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3.3.1-bandida uzluksiz ta'limni rivojlantirish doirasida I–IV sinflarda ta'limni tashkil etish rejalari nazarda tutilgan. Mazkur qonunchilik hujjatlari maktab ta'limi tizimi oldiga yangi maqsad va tamoyillarni qo'yish uchun asos bo'ldi. Dolzarbligini yo'qotmayotgan muhim vazifalardan biri — farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega, qat'iy hayotiy pozitsiyaga hamda chinakam vatanparvarlik tuyg'usiga ega shaxslar etib tarbiyalashdir [3]. Boshlang'ich sinflar uchun "O'qish savodxonligi" fani darsliklariga kiritilgan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish va ularning dunyoqarashini milliy istiqloq g'oyasi asosida shakllantirishga qaratilgan. Shu jihatdan o'qish darslarining yetakchi xususiyati faqat savodxonlikni ta'minlash emas, balki o'quvchilarni milliy mafkuraga asoslangan yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan ham iborat.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida o'rganiladigan asarlar mavzusi nihoyatda rang-barang bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatsevarlik, milliy bayramlar, mustaqillik va ma'naviyat g'oyalari kabi umumiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Boshlang'ich maktabdagi o'qish darslari ta'lim jarayonining asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar nafaqat savodxonlikni shakllantirish vazifasini bajaradi, balki axloqiy va tarbiyaviy tafakkurning dastlabki bosqichlarini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli boshqa fanlarni o'zlashtirish aynan o'qish darslarida shakllanadigan mustahkam poydevorsiz mumkin emas. Aynan shu darslarda bolalar ilk bor matnlarni o'qish, ularning mazmunini tushunish hamda o'qilgan matnni to'g'ri va ifodali talaffuz qilishni o'rganadilar.

O'qish mashg'ulotlari o'quvchilarda Davlat ta'lim standarti (DTS) bilan belgilangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda bolaning dunyoqarashi shakllanadi, hayot va atrof-muhit haqida mustaqil fikr bildirish qobiliyati rivojlanadi. "O'qish savodxonligi kitobi" darsliklari o'quvchilarning ma'naviy va intellektual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, ular tabiat, Vatan tarixi, ijtimoiy hayot, mehnat, tinchlik va milliy qadriyatlar mavzularidagi badiiy hamda ilmiy-ommabop asarlarni o'z ichiga oladi. Ushbu materiallar orqali o'quvchilar kattalar hayoti, xalqlar do'stligi, mustaqillik g'oyalari va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Shu bois "o'qish" fani faqat til va savodxonlik darsi sifatida emas, balki keng dunyoqarash, insonparvarlik va milliy o'zlikni anglashni shakllantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi [4].

1–4-sinflarda amalga oshiriladigan o'qish savodxonligi dasturi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini adabiy til me'yorlari asosida shakllantirishga, shuningdek, ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dastlab og'zaki ifoda ko'nikmalari shakllantiriladi, keyinchalik esa adabiy tilning uslubiy xususiyatlarini o'zlashtirish orqali yozma savodxonlik rivojlantiriladi. O'quvchi avval tanish, so'ngra notanish matnlarni ifodali o'qishni egallash bosqichlaridan o'tadi. Bunda asosiy e'tibor o'qish malakasi darajasini aniqlashga, ya'ni matnni tushunib va ongli o'qish, ravonlik hamda tezlikka (bir daqiqada o'qilgan so'zlar soni) qaratiladi. 3–4-sinflarda o'quv dasturi mazmuni yanada kengayadi. Ayniqsa, ushbu bosqichda o'qish darslari matn ustida chuqurroq ishlashga yo'naltiriladi. Dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshiruvchi va ularning dunyoqarashini kengaytiruvchi metodlardan foydalaniladi. Jumladan, badiiy asarlarni rollarga bo'lib o'qish, qahramon nomidan hikoya qilish, voqealar davomini tuzish, mavzu asosida og'zaki hikoyalar yaratish kabi ijodiy topshiriqlar qo'llaniladi [5].

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda hayotiy tajriba va real kuzatishlar asosida tashkil etilgan o'qish darslari o'quvchilarda matnga nisbatan chuqur va ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Matnni o'qish va nutqni rivojlantirish jarayoni nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki tarbiyaviy, estetik va axloqiy maqsadlarni ham qamrab oladi. Sinflar kesimida o'qish mazmuni, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish metodlari, matn ustida ishlash bosqichlari hamda o'qish mashg'ulotlarini yozma fikr bayoni bilan bog'lash mexanizmlari aniq rejalashtiriladi. Boshlang'ich sinflardagi o'qish darslari keyinchalik o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya va biologiya kabi fanlarni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bosqichda o'quvchi matnni to'g'ri tushunish, asosiy g'oyani ajratish, qahramonlarga munosabat bildirish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini egallaydi. Shu bois boshlang'ich bosqichdagi o'qish darslarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi — ular nafaqat savodxonlikni, balki tafakkur madaniyatini ham shakllantiradi [6].

O'qish darslarining tarbiyaviy yo'nalishi ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida bolalar nafaqat o'qish ko'nikmalarini egallaydilar, balki ijtimoiy-

axloqiy me'yorlarni ham anglay boshlaydilar. Darslik matnlari orqali o'quvchilarga yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farq, ezigulikka intilish, mehnatsevarlik, halollik va adolat kabi tushunchalar bosqichma-bosqich singdiriladi. Badiiy obrazlar, voqealar va qahramonlar taqdiri orqali bolada insoniy fazilatlar tarbiyalanadi. Shu jihatdan darsliklar mazmunida xalq og'zaki ijodi namunalarining mavjudligi ham ma'naviy-axloqiy rivojlanishga xizmat qiladi. Masalan, ertaklar, topishmoqlar, maqol va matallar kabi janrlar nafaqat bolaning lug'at boyligini kengaytiradi, balki xalq donishmandligini ham o'zida mujassam etadi [7].

Boshqa tomondan, o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri — o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mushohada yuritishga va o'z qarashlarini shakllantirishga undashdir. Har bir matndan keyin beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchilarni fikrlashga majbur qiladi hamda o'qilgan materialga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishga yordam beradi. Bu esa "o'qish" fanining oddiy axborot olish vositasi emas, balki tafakkurni rivojlantiruvchi fan sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi [8]. Ta'kidlash joizki, zamonaviy o'qish darslarida interaktiv metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o'qituvchi faqat matnni o'qib berish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u bolalar bilan muloqot olib boradi, munozaralar, rolly o'yinlar, sahnalashtirish va matn asosidagi ijodiy topshiriqlarni tashkil etadi, bu esa ta'lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning faolligi va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi [9].

Shuningdek, o'qish darslarining asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. O'quvchi matnni shunchaki o'qibgina qolmay, balki uni tahlil qilish, fikr yuritish, dalillash, izohlash, savollarga javob berish va o'z fikrini izchil bayon etish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallaydi. "O'qish savodxonligi kitobi" darsliklarining har bir bo'limida Davlat ta'lim standarti (DTS) talablariga muvofiq tuzilgan og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar keltirilgan [10].

Dars jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, "voqea davomini tuzing", "qahramonga xat yozing", "agar siz shu vaziyatda bo'lganingizda nima qilardingiz?", "matnga boshqa nom toping" kabi mashqlar bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida ularning og'zaki va yozma shaklda erkin fikr bildirish ko'nikmalarini boyitadi. Matn ustida ishlash bosqichlarining izchilligi, har bir darsning aniq didaktik maqsadga ega bo'lishi hamda o'quvchiga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv metodikasining qo'llanilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'qituvchisi faqat o'qishga o'rgatuvchi shaxs emas, balki dars mazmunini hayotiy misollar bilan boyitadigan, o'quvchilarda shaxsiy munosabat uyg'otadigan va savollar orqali ularni mushohada yuritishga undaydigan yetakchi bo'lishi kerak [11].

Bundan tashqari, o'qish darslari ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham muhim o'rin tutadi. Masalan, darsliklarga bolalar psixologiyasiga mos milliy yozuvchilar asarlari va xalq og'zaki ijodi namunalari kiritilishi o'quvchilarda vatanparvarlik, tinchliksevarlik va Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarning ichki dunyosini boyitib, kelajakda ularda ongli fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga yordam beradi [12].

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish nafaqat savodxonlikni shakllantirish bosqichi, balki o'quvchilarda tafakkur madaniyati, nutqiy kompetensiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va mustaqil dunyoqarashni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Darslarda milliy g'oyalar, zamonaviy metodika va texnologiyalar uyg'unligining ta'minlanishi ta'lim sifati hamda tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi. Shu bois o'qish mashg'ulotlarini puxta rejalashtirish va ularga ijodiy yondashish xap bir pedagogning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Yolgoshevich Q. A., Tursunov M. S., Yusupova S. T. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalari // Pedagogical Sciences and Teaching Methods. – 2024. – T. 4. – № 39. – B. 140–144.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi [online]. — T.: Lex.uz, 2008–2025. № –5013007. Available at: <https://lex.uz/docs/-5013007> (accessed 14.07.2025).

[3] Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 103 b.

[4] Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: NOSIR, 2009. – 256 b.

[5] Asqarova O', Muminova D. O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Namangan: 2019. – 48 b.

[6] Yolgoshevich Q. A., Jo'rayev M. T., Raximova N. M. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining maqsad va vazifalari // Pedagogical Sciences and Teaching Methods. – 2024. – T. 4. – № 39. – B. 140–144.

[7] Ikromova O. E. Boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etish: pedagogik yondashuvlar // Art-Talant publikatsiyasi. – 2023. B. 56.

[8] Атамуродова Г. Бошланғич синфларда талаффуз машқлари ишлаб чиқиш тизимини шакллантиришда савод ўргатиш дарсларининг ўрни ва аҳамияти // Education and Innovative Research. – 2021. – № 4(87).

[9] Doniyarov M. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish // JDPU ilmiy ommaviy maqolalar. – 2023. – 04.04.2023. – Режим доступа: <https://jdpu.uz/boshlangich-sinf-oquvchilarining-oqish-savodxonligini-rivojlantirish> (дата обращения: 14.07.2025).

[10] Qorayev S. B., Janbayeva M. S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish // Academic research in educational sciences. – 2021.

[11] Bekova Sh. E. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish // Fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – 20.01.2023. – Режим доступа: <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/3346> (дата обращения: 14.07.2025).

[12] Matchonov S. va boshq. O'qish darslari: metodika va nazariy asoslar // Arxiv.uz pedagogik psixologiya slaydlari. – 2012–2019.